

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

№ 30 (66311)
2001 yil 27 iyul, juma

Sotuvda erkin narxda

"MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI"

Mustaqillik xalqimizning yigirmanchi asr so'ngida qo'lga kiritgan ulkan tarixiy g'alabasidir. Shuning uchun ham uni eng ulug' va eng aziz bayramimiz deb tan olamiz. Istiqlolimizning o'n yilligini munosib kutib olish uchun barcha joylarda katta tayyorgarlik bo'lyapti. Ko'plab tadbirlar, uchrashuvlar, tanlovlar o'tkazilyapti, bunyodkorlik ishlari davom etyapti.

- Ayni kunlarda Respublikamizning barcha viloyatlarida Mustaqilligimizning o'n yilligiga bag'ishlangan «Men nechun sevaman O'zbekistonni» ko'rik-tanlovi o'tkazilyapti,- deydi O'zbekiston

Respublikasi «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasi ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha bo'lim boshlig'i Muhabbat Sherbo'tayeva. - Unda mamlakatimizning yetti yoshdan yigirma yoshgacha bo'lgan iqtidorli ijodkorlari vatanparvarlik ruhida tasviriy va amaliy san'at asarlari bilan qatnashdilar. Tanlovni o'tkazishdan maqsad yosh rassomlar orasida milliy va ma'naviy qadriyatlarni targ'ib etish hamda chekka qishloqlardagi iste'dodli ijodkor yoshlarni yuzaga chiqarish va qo'llab-quvvatlashdir.

Oliy Majlis Yoshlar ishlari qo'mitasi, Toshkent shahar hokimligi, Milliy Bank, Badiiy Akademiya, «Tasviriy oyina» uyushmasi, «Matbuot tarqatuvchi» aksiyadorlik kompaniyasi tashabbusi bilan boshlangan ko'rik-tanlovning shartlariga ko'ra - rang-tasvir, grafika va haykaltaroshlik yo'nalishidagi asarlar qabul qilindi. Asarlarda Vatanimizning betakror tabiati, milliy urf-odatlar, qadriyatlari, tarixiy voqealari, zamonaviy milliy qahramonlari, mustaqillik yillarida yurtimizda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari o'z aksini topdi.

G'oliblikni hamda rag'batlantiruvchi



Tengdoshingiz M. Mutalova chizgan suratiga o'zingiz baho bering.

sovrinlarni qo'lga kiritgan yosh mualliflarning asarlari Milliy Bank va Badiiy Akademiyaning ko'rgazma zallariga doimiy saqlash va namoyish etish uchun olib qolinadi.

«Men nechun sevaman O'zbekistonni» Respublika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi davom etyapti. Rang-tasvir yo'nalishi bo'yicha Andijon viloyati, Andijon tumanidagi 14 yoshli Javlonbek Yusupov o'zining chizgan suratini «Amir Temurning Anqara yonidagi jangi» deb nomlagan. Izboskanlik 13 yoshli Mansur Mamadaliyev esa «Ona yurtim» deb nomlangan

rasmida o'z yurtiga bo'lgan mehr-muhabbatini bo'yoqlarda tarannum etibdi.

Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi 23-maktab o'quvchisi Shahriyor Soliyev ham bolalikning beg'uborligini his etib, «Beg'ubor bolaligim» suratini chizibdi. Haykaltaroshlik yo'nalishi bo'yicha Qo'qon davlat tasviriy san'at va amaliy san'at kolleji o'quvchisi Rustam Ummatov «Onalar va bolalar» yiliga bag'ishlab «Ona va bola» haykalini tayyorlabdi.

Joylardagi iqtidorli ijodkorlar viloyat, shahar, tuman «Tasviriy oyina» ijodiy uyushma bo'limlari tomonidan qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan taqdirlanayaptilar. Bu esa ularni yanada sermazmun va go'zal ijodiy ishlarni yaratishga undayapti.

«Men nechun sevaman O'zbekistonni» ko'rik-tanlovidagi ishlarni kuzatar ekanmiz, ularning har birida yoshlarimiz qalbida ona Vatan tarixi, o'tmishi va buguni borligini his qila oldik. Ular Vatanimizga munosib farzandlar bo'lib ulg'ayishayotganidan behad quvondik.

Feruza ODILOVA yozib oldi.



Shahrisabzlik Sarvar Qurbonov «Istiqlol nihollari» suratini chizibdi.



QORONQULSOY - DAM OLISHGA MOS JOY

Xalq Ta'limi Vazirligi Respublika yosh sayohatchilar va o'lkashunoslar markaziga qarashli «Qoronqulsoy» qo'nimgohi Burchmullaning eng so'lim go'shalaridan. Ayni ta'til kunlarida bu maskan ham bolajonlar bilan gavjum. Respublika Nafis San'ati litseyining eng a'lochi o'quvchilari - «San'atshunos - o'lkashunoslar» yo'nalishi a'zolari miriqib xordiq chiqarishyapti. Dam olibgina qolmay, to'garak rahbari Abdurahmon Norqobilovdan musavvirlikning nozik siru sinoatlarini o'rgana boryaptilar. Qo'llarida mo'yqalam, oldilarida rasm chizish moslamasi, nigohlari olis-olislarga qadalgan: yashillikka burkangan o'rkach-o'rkach

tog'larni, sharqiragan soyni, tog' yon bag'rida o'tlab yurgan suruv-suruv qo'y-yu echkilarni, qisqasi, betakror tabiat manzaralarini aks ettirishyapti ular.

Yozning issiq kunlarida «Qoronqulsoy»da miriqib dam olish Toshkent shahridagi 138-maktabning «Yosh ekolog-o'lkashunoslar» yo'nalishidagi to'garak a'zolariga ham nasib etdi. To'garak mashg'ulotlarida olgan bilimlarini amaliyotda sinash, tajriba o'ttirish niyatidalar ular. To'garak rahbari Habibullo Rasulovning har bir so'zlarini, maslahatu o'gitlarini diqqat bilan tinglashlari ham shundan.

S. FOZILOVA.

Alyosha SHTARKLOV olgan surat.

O'zbekiston mustaqilligining yana bir qirrasini shu bo'ldiki, biz iqtisodiyot, tadbirkorlik, biznes olamini tushunish, uni boshqarishga ega bo'lish bilan bir qatorda harbiy hayot, harbiylar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldik.

Kuni kecha Chirchiq shahar Oliy harbiy tank qo'mondonligida ajoyib tantana bo'lib o'tdi. Bundan ikki oy muqaddam bu yerga

"UMID"CHI HARBIYLAR

jamiyatimizning asosiy kuchlari, respublikamizdan chet ellarga bilim olish uchun «Umid» jamg'armasidan jo'natilgan o'g'lonlarimiz yigitlik burchini o'tash uchun kelgan edilar. Harbiy kiyimlari yarashib turgan bu Vatan himoyachilari harbiy qasamyod qildilar. Shu kuni qism bayramona ruhda bo'ldi. «Umid»chilarni tantanasiga «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakatidan vakillar, ota-onalari, qarindoshlari tashrif buyurishdi. Yigitlar umid tutgan, ishongan Vatan oldida, ota-ona, ajdodlar ruhi, kelajak oldida Vatanga sodiq farzand bo'lishga, el-yurti tinchligi uchun jonlarini fido qilishga, mamlakatimizning gullab-yashnashi uchun bor kuchlarini ayamaslikka qasamyod qildilar. So'ng tantanali harbiy namoyish uyushtirishdi. Barcha tashrif buyurgan mehmonlar ularga ishonch bildirishdi.

Mahliyo MIRSOATOVA.

Zirapcha

KUTUBXONADAGI QULF

Akam kitob o'qishni juda yaxshi ko'radilar. Maktabda o'qib yurgan vaqtlarida doimo kutubxonaga yugurganlari yugurgan edi. Ulardagi kitobga bo'lgan mehr menga ham o'tgan. Ko'plab kitoblar o'qisam deymen. Biroq... Qishlog'imizdagi kutubxona faqat eski kitoblar bilan to'la. Bir oy ilgari noiloj o'sha kutubxonadan o'qish uchun kitob oldim. Uni kutubxonaga qayta topshirish uchun uch marotaba bordim. Ammo uning eshigida kattagina qulfdan boshqa narsani ko'rmadim. Tavba, eshigiga «Ish vaqti 8.00 dan 17.00 gacha» deb yozilgan-ku. Yoki kutubxonachi opamiz biz so'ragan kitoblarni topib berolmayotganlaridan uyalib, birato'la qulf osib qo'ydilar-mikin?

Sitora SHAHOBOVA,
Namangan viloyati,
Chust tumanidagi iqtidorli
bolalar litseyi o'quvchisi.

XATLAR TEGIRMONI



YUNUS OBOD - GULOBOB

Shunday payt ham o'zing aylagin shafqat,
Ona bo'la qolgin, menga tabiat.

Abdulla ORIPOV.

Sevimli shoirimizning tabiatni onalarga qiyoslaganlari bejiz emas. Zero, bag'ri kenglikda, mehrda ular bir-birlaridan qolishmaydilar. Har ikkisinin ham ta'rifiga so'zlarimiz ojizlik qiladi. Onalarimiz kabi tabiatning ham yanada ko'rkamlashib, chiroy ochishi bizlarga bog'liq.

Erta bahorda Yunusobod tumani hokimining tashabbusi bilan har bir maktabda, mahallada ko'kalamzorlashtirish oyligi o'tkazilgandi. O'shanda juda ko'plab mevali va manzarali daraxtlar, gul ko'chatlari ekkandik. Ularni shu kunlarda ko'rsangiz edi: daraxtlar yashillikka burkangan, rango-rang gullarimiz chamandek ochilib turibdi. Yunusobodimiz chinakam «gulobod»ga aylangan. «Gulobod»imizda yashaydigan yoshu qarining maqsadi yagona - jonajon tabiatimiz chekmasin hech aziyat!

Dilnoza PO'LATOVA,
Yunusobod tumanidagi
273- litsey maktab o'quvchisi.



ORZUIMIZ USHALDI

Mana, yozgi ta'tilning ikki oyi ham ortda qoldi. Ko'pgina o'quvchilar oromgohlarda, buvi va buvajonlarining uylarida dam olishga ulguridilar.



Hozirda ko'pchilik bolalar ota-onalarining bag'ridalar. Ayniqsa, o'g'il bolalar ko'cha changitib, shovqin ko'tarib to'p tepish bilan ovora. Bu hol ko'pchilik keksalarga yoqmaydi, albatta. O'ynash uchun sport maydonchasi bo'lmagandan keyin...

Buni tushungan mahalla oqsoqollari 121-maktab rahbariyati bilan kelishgan holda futbol, voleybol, basketbol va tennis

o'yingohlarini
ajratib berishdi.

Endi bolalar bemalol sportning xohlagan turlari bilan shug'ullanishlari mumkin. Bu ishdan barcha katta-yu kichik birdek xursand.

Dilnoza HAMDAMOVA,
Samarqand viloyati, Urgut
shahridagi 121- maktabning
6-sinf o'quvchisi.



MENDA BIR TAKLIF BOR

Mustaqilligimizning 10 yilligi nishonlanadigan quvonchli damlarga ham sanoqli kunlar qoldi. Yurtimizning kundan-kunga chiroy ochib borayotganiga hammamiz guvohimiz. Ko'chalarimiz keng va ravon qilib ta'mirlanyapti, daraxtlarning shoxlari tekislanib, manzarali gul ko'chatlari ko'rkiga ko'rk bag'ishlayapti. Shahrimiz ko'chalaridan qatnayotgan yangi avtobuslarni aytmayisizmi, ravon qo'chalarimiz juda yarashib tushgan.

Ana shunday chiroyli avtobuslardan birida ketyapman, ichlari shinam, o'rindiqlari biram qulay, yumshoqi, manzilga qanday yetib borganingni ham bilmay qolasan kishi. Ana shunday o'y-xayollar bilan ketayotgandim. «Chorsu» bekatidan men tengi

3-4 nafar bolalar chiqishdi. Qo'llarida bir hovuchdan pista, baqirib-chaqirib, bir-birlarini turtib ketishardi. Avtobusning ichi bir zumda pista po'choqlari bilan ifloslanib ketdi. Nazoratchi ayol ularga tanbeh berdi. Bolalar esa: «chaqsam o'zimning pulimga chaqyapman, sening nima ishing bor?» deya parvo ham qilishmadi...

Shu voqea sabab bekatlarga e'tibor berdim, deyarli hammasi pista po'choqlari bilan ifloslanib yotardi. Shunda bir fikr tug'ildi: pista sotuvchi amaki-yu xolalarimiz pistalariga maxsus yelim xaltachalar qo'shib sotishsa, po'choqlarni ana shu xaltachalarga joylab, axlat qutilariga tashlansa. Siz nima deysiz, tengdoshlarim?

Mahmudjon AZIMOV,
Shayxontohur tumanidagi
G'afur G'ulom nomli
169-maktabning
4- «G» sinf o'quvchisi.

Ayrim vaqtlarda ko'cha-ko'ya tasodifan umuman tanimaydigan insonni ko'rib, uni sizga yaqin bo'lgan yoki yaxshi taniydigan insonga o'xshatib yuborasiz. Ba'zilar esa tanimagan odamingizni do'stingizgami, dugonangizgami o'xshatib yuborganingizdan uni ismini aytib chaqirib ham qolasiz. Qarasangiz, u boshqa odam. Lekin unga juda o'xshaydi. Balki siz bir-birini tanimaydigan odamlarni xuddi egizaklardek o'xshashini ham shohidi bo'lgandirsiz. Lekin, insonlarda hech qachon bir-biriga o'xshamaydigan narsa nima, bilasizmi? Ha, bu barmoq izlari. Siz buni matbuot, televideniya orqali juda yaxshi bilasiz. Jinoyatchilarni aniqlashda ularni barmoq izlaridan ajratishadi. Barmoq izlarining paydo bo'lishi ham qiziq. Odam terisi 3 qatlamdan iborat. 1- Epidermos, 2-Derma, 3-Gipoderma. Derma qalin qatlam bo'lib, uni yupqa bo'lgan

epidermos qoplab turadi. Barmoq izlari ana shu



qatlamning yopishiga bog'liq. Bundan tashkil topgan chiziqlar allaqanday shakllarga o'xshaydi. Bu shakllarni o'rganib chiqqan ingliz olimi Ser Edvard Genri barmoq izlari klassifikatsiyasini ishlab chiqdi va shu asosda hozirgi paytda butun dunyoda ishlatiladigan tizim yaratildi.

QUVONCHLARGA
BOY YILIM

Bu yil men uchun juda omadli keldi desam xato bo'lmaydi. Toshkentda bo'lib o'tgan «Iqtidorli bolalarning X Respublika anjumani»da muvaffaqiyatli qatnashib, «Faxriy yorliq» olish baxtiga muvassar bo'lgandim. Yaqinda esa «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining ta'sis Quriltoyida Farg'ona yoshlari nomidan delegat bo'lib qatnashdim. Motamsaro ona haykali poyiga guldastalar qo'ydik. «Amir Temur» hamda «Shon-shuhrat» muzeylarini tomosha qildik. Ayniqsa, sevimli shoirimiz Abdulla Oripov bilan qilgan uchrashuvimiz hecham yodimdan chiqmaydi. Quriltoydan bir olam taassurotlar bilan jonajon Farg'onamga qaytdim. Keyin esa viloyatimizda, tumanimizda konferensiyalar bo'lib o'tdi, viloyat, tuman kengashlarini sayladik. Meni ham kengash a'zosi qilib saylashganidan boshim osmonga yetdi va bildirilgan ishonchni oqlashga astoydil harakat qilyapman.

Yaqinda tumanimizda yana bir ajoyib uchrashuv bo'lib o'tdi. Sevimli shoirimiz Tursunoy opa Sodiqova mehmon bo'ldilar. Men ularga atab yozgan she'rinni o'qib berdim. Menimcha, she'rim opaga ham, kecha ishtirokchilariga ham juda ma'qul bo'ldi. Yana Quriltoydan olgan taassurotlarimni ham qog'ozga tushirgandim. Uni respublikadagi tengdoshlarim ham o'qib ko'rishlarini xohlardim:

SADOQAT

«Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati»ning Ta'sis Quriltoyiga bag'ishlayman.

O'zbekiston - aziz Onajon,
Tomirimda oqqan qonimsan.
O'zbekiston - aziz Onajon,
Tanamdagi uyg'oq jonimsan.
Mustaqillik ochdi eshiging,
Yurtboshimiz qanot bizlarga.
Yuraklarda ishonch bor bugun,
Vatan, ishon o'g'il-qizlarga.
Yetib keldik asrlar osha,
Ezgu niyat ostonasiga.
Bu dunyoda har kim munosib,
Farzand bo'lsin o'z onasiga.
Istiqlolda balqdi adolat,
Vujudimiz uyg'ondi go'yo.
O'g'il-qizni safda jamlagan,
«Kamolot»ing ko'rsin bu dunyo!

RAXSHONA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi
4-maktabning 8-sinf o'quvchisi.

Agarda siz barmoqlaringizdagi shakllarni ko'rmoqchi bo'lsangiz, barmog'ingizni siyohga botirib oq qog'ozga bosing va siz o'z barmoqlaringizni ko'rasiz. Har xil olamning bir xil barmoqlarining izlari ham tasodifan bir xil bo'lishi ehtimoli 24 mln. dan bittagina bo'lishi mumkin.

Komila OMONOVA,
San'at institutining
san'atshunos-
jurnalistikasi
fakultetining
1-kurs talabasi.



16

Yanoqlaringiz qizil,
Tandir taftidan bildim.
Bugun dildagi borim,
Sizga atab she'r qildim.
Barcha tashvishlaringiz,
Bir zum unuta qoling.
Yumushlarim ko'p, demay,
Jimgina quloq soling.
Shabnam qo'ngan gullardan,
Guldastalar terayin.
Sizga atalgan she'r im,
Tinglang, o'qib berayin.
-She'ring biroz qo'ya tur,
O'rgilay sendan o'zim.
Issiqqina non yeb ol,
Mening shoira qizim.



15

ONAJONIM

-Nechun bunchalar barvaqt,
Uyg'ondingiz onajon?
-Oppoq tongni sevaman,
Uyqum qochar bolajon.
Quyoshning qizarishin,
Sog'inaman har sahar.
Musaffo tonggi shabnam,
Dillaringa xush yoqar.
Anvoyi hid taratar,
Tongda ochilgan har gul.
Tinglayman sirii suhbat,
Qurganda gul-la bulbul.
-Uyqum kelmaydi demang,
Ishonmayman baribir.
Bizlar turguncha axir,
Non yopasiz bir tandir.
Ko'kdan somsalar yopib,
Hozirlaysiz nonushta.
Biz esa shirin uyqu,
Yotamiz og'ushida.

8

"YANGI" QIZ


Uchinchi «B» sinfga
Yangi o'quvchi keldi.
Degan ajib xushxabar,
Zumda har yon yoyildi.
Yangi qizni ko'ray deb,
Shoshib kirdim xonaga.
Qizcha bo'lsa iymanib,
Termulardi oynaga.
Ismi surishtirsam:
-Nozima, -dedi asta.
Nimasi yangi, deya
O'nga toldim bir pasda.
Ko'chamizda bir talay,
Nozimalar yashaydi.
Papkasi, lentasi ham,
Biznikiga o'xshaydi.
Boshdan-oyoq termulib,
Yonidan ketolmayman.
Nechun «yangi qiz» derlar,
O'yinga yetolmayman...



82

HANONOT BOG'IDAGI SUHBAT

-Boqishlaring mungli, o'ychan,
Xayollaring parishon,
Qalbing o'rtar qanday armon,
Darding olay, onajon!
-Ozod bo'lsak, deymen bolam,
O'tinchim shul yagona.
-Ozodlik bu o'zi nima?..
Bu so'z menga begona...



7



Deydiyar menga o'yin.
-O'qib-o'qib olim bo'l,
Tayinlar dadam doim.
Kashning yomoni bo'lmas,
Dunyoda kash to'ladi.
Lekin har bir kishining,
Sevgan kashi bo'ladi.
Sizlarga aytam do'stlar,
Men hozircha o'quvchi.
Katta bo'lsam onandek,
Bo'laman o'qituvchi.

24

MENING DADAM KATTI

Shuhratning dadasini,
Deyshadi kattakon.
Dadam bilan bo'ylarin,
O'lehadim, topib imkon.
Sababin bilolmadim,
O'ylanmayin har qancha.
Mening dadam ulardan,
Katta ekanlar a-a-ancha.



BO'LAJON

ЁРГАКЧИ
БММ
Buviyionim ustalar,
Topishmog'u etakka.
Ammo eng qiziq joyda,
Ulanadi xurrakka.

«Tong yulduzi» -2001



MENGA YOQADI

Akmal degan bir bola,
Fe'li ajib, sir bola.
Nor boboning kuchugin,
Atrofida gir bola.
Hushtak chalib chaqirib,
Boshlarini silaydi.
Erkalatib, o'ynatib,
Ul-bul berib siylaydi.
-Qo'shning kuchugini,
Muncha yaxshi ko'rasan?
Deya bir kun Akmalidan,
Men qiziqib so'rasam:
-Soddasan-da, do'stim, -

O'QITUVCHI
BO'ZAMAN

Maktabdan uyga kelsam,
Oilamiz jamul-jam.
Oyim, dadam va buvim,
To'rda o'tirar buvam.
Buvam dedilar: -Qizim,
O'n oltiga to'libsam.
Mana hash-pash deguncha,
Oqila qiz bo'libsam.
-Maslahatim, - der buvam,
Paxtakor bo'lg'in, qizim.
Paxta terib shon topdim,
Qadr topdim men o'zim.
Buvamning so'zin bo'lib,
Buvim deyдилar menga:
-Shifokor kasbi qizim,
Munosib bo'lar senga.
-Tarbiyachi bo'l qizim,

Aziz bolajonlar, uzoq
yillardan buyon «Tong yulduzi»
gazetasida mehnat qilib kelayotgan
iste'dodli jurnalist Feruza Jalilovani
hammingiz yaxshi tanisangiz
kerak-a. Gazetamiz sahifalarida
ko'plab maqola, ocherk, xabar va
lavhalarini o'qigansiz. Feruza
opangiz shuningdek, sizbop she'rlar
ham mashq qiladilar.

Qo'lingizdagi «Bolajon» deb
nomlangan kitobcha ana shunday
she'rlardan jamlangan. O'zingiz
o'qing, quvnoq she'rlarni jajji uka
va singillaringsizga ham o'qib bering.
Umid qilamizki, bu kitobcha
barchangizga birdek manzur bo'ladi
va kitob javoningizdan munosib
o'rin egallaydi. Lotin alifbosidagi
kitoblaringiz
soni yana bittaga ortadi.

BOLAJON

Otalar quvonchi, onalar baxti,
Dunyoning tayanchi, nasl ertasi.
Uylarning bozori, umrimiz ko'rki,
Sen odam, olamning gulgun erkasi.
Sen borsan, dunyo sho'x kulguga to'la,
Sen borsan, elatim bag'ridir butun.
Har qanday g'am-anduh, alamdan ko'ra,
Gulgun tabassum turadi ustun.
Deydilarki, biri kam erur dunyoning,
Kimlardir ardoqlar, kim tirnoqqa zor.
Gulgun g'unchalarni ochilmay turib,
Xoru xas aylagan insonlar ham bor.
Bolajon, bir lahza ko'zlarimga boq,
Qo'limni qo'yayin egik boshingga.
Ruhingni baland tut, beg'ubor go'dak,
Bundaylar arzimaz qatra yoshingga.
Yashagin, quvongin, davron seniki,
Navoiy, Nodira, Temuriy nasli.
Xalq mehrin hamisha dilingga jo qil,
Kelajak egasi sen o'zing asli!

Nabirasin quchadi.

-Buvi, aytin axir nega,
Urishisharkin doim?
Yo dadamning konfetlarin,
Yeb qo'ydlarmi oyim?
Nabiraga ne deyarin,
Bilolmay kampir garang.
-Yana o'sha qora mushuk,
O'tdi, -deyoldi arang.
-Buvi, men-chi shu mushukni,
Bir kun tutib olaman.
Boplab adabini berib,
Uydan haydab solaman.
Ana shunda oyim, dadam,
Urishishmas hech qachon.
Shundagina siz bilan men,
Tinch yashaymiz, buviyon.

MENI BIR
MEHMON QILSIN


Bog'bon bobom erta-kech,
Bog' oralar, to'kib ter.
Qo'lida qaychi, ketmon,
Xomtok qilar, chopar yer.
Zarrin nurda tovlangan,
Uzumlar tizim-tizim.
Mevalar sarhildan,
Qamashib ketdi ko'zim.
-Bog'ni boplabsiz juda,
Bobo, sizga ming rahmat.
-Bog'ni bog' qilgan asli,
Men emas bolam, mehnat.
-Bobo, aytin mehnatga,

BALIQLARGA MAZZA

Baliqlarga mazza-da,
O'ylar Erkin erinchoq.
Yuvinish ham shart emas,
Uyqudan uyg'ongan choq.
Har tong onasi takror:
-Tishlaringni yuv!-demas.
Eng muhimi- sinfda,
Qizarib, dakki yemas.

JANJALKASH
QUYONGCHA

Kichik o'rmon ichida,
Yashar olti olmaxon.
Barchasi birgalikda,
Uynashardi qorbo'ron.
Shunda bir quyon kelib,
Yangicha reja tuzdi.
Birpasda janjal boshlab,
Uyin-kulguni buzdi.
Olmaxonlar barchasi,
Quyunchaga qor otdi.
U esa hafa bo'lib,
Iniga borib yotdi.
Endi o'yin-kulguning,
Keragi yo'qdir unga.
Foydami yoki zarar,
Siz nima deysiz bunga?




YO'U TOPILDI

Bog'chadan qaygach Bobir,
Qo'lga olib qalamni.
Uyning oq devoriga,
Boplab chizdi odamni.
Buni ko'rgan opasi,
Bobirni chaqirdi.
-Kim chizdi buni? -deya,
Do'q aralash baqirdi.
Ko'zlarin pirlatib:
-Men emas, - dedi Bobir.
Kim bo'lmasa, qani ayt,
-Balki ukandir, Sobir.
Ana shunda opasi,
Sinab ko'rmogchi bo'lib.
-Qoyil chizibdi, - deya
Maqtadi og'zi to'lib.
Maqtovlardan Bobirning,
Og'zin tanobi qochdi.
-Men chizgandim, zo'r-a? -deb
O'z sirin o'zi ochdi.

29

O'ZBEKISTONIM

O'zi xon, o'zi bek deydiyar seni,
Moziyga yelkadosh davronlaring bor.
Tartixing ko'p yillar olsada gannab,
Mustaqillik kuning qilgum iftixor.
Tenglar ichra teng deb atarding o'zni,
Ozodlik so'zidan yasab ol bayroq.
Ko'p yillar sen shior aylagan so'zlar,
Qo'shitmoq ichida yozilmish biroq.
Bu kun sening yo'ling yagona, tayin,
Istiqbol yo'lini eiding ixtiyor.
O'z tiling, o'z dining, eking qo'lingda,
Yo'qdan yana bor bo'lgan udumlaring bor.
Shukurkim, mos bo'lmish isminga jisming,
O'z uyingga o'zing egasan, shonim.
Bir kunmas, bor kunlar seniki bo'lsin,
Ey mening mustaqil O'zbekistonim!



2

5

Uchrov jo'r itaga.
-Shoxim ortga qayirib,
Azob berdi u.
Qo'llarini sindiring,
Mening hukmin shu!
Shokir ko'rsa vaziyat,
Jiddiy tus oldi.
Qanday qutilsam, deya,
O'ylanib qoldi.
«Vajohatlari buzug»-
O'ylar bechora.
Tezda qochib qolishdan,
Yo'q o'zga chora.
Qaramay o'ng-so'liga,
Qo'chdi Shokirjon.
Tezda quvib yetdilar,
«2»lar chaqqon.
Azob berdilar unga,
Qo'llin qayirib.
Og'riqdan qolayozdi,
Hushdan aytilib.
-Voy-voy, yordam beringlar,-
Deya dod soldi.
Hayotdani, xayolda,
Angolmay qoldi.



deb,
U yelkanga qoqadi.
Kuchugimas, aslida,
Bog'i menga yoqadi.

26

QO'RA MUSHUK

Oilada yana janjal,
Eru xotin urishar.
Yomon so'zdan bir-biriga,
Go'yo qasr qurishar.
Qo'lga ilingan buyumlar,
Tinmay har yon uchadi.
Sho'rik kampir jon holatda,



SABABCHI - OYIM, DADAM...

Nechun do'sting A'lojon,
O'qir «5» baho olib.
Sen bo'lsang har sinfda,
Qayta o'qiysan qolib?
-Bunga-chi, sizga aytsam,
Sababchi - oyim, dadam.
A'lojon deb atamay,
Ismim qo'yishgan Hamdam.

18

13

10

Mezbon bo'lishni bilsin.
Sarxil uzumlar bilan,
Meni bir mehmon qilsin.



12

Chunki har bir jangchisini,
U kuzatib boradi.
Qo'shnilarning o'g'li bilan
ukam zo'r jang boshlaydi.
O'zi tomga chiqib, bizni
jang maydonga tashlaydi.
Xullas, shunday ajoyib bir,
mening kichik ukam bor.
Komandirdir «tajribali»,
«qo'rqmas», «jasur» bizning
NOR!

MEHMONLAR

Mehmonxonaga kirib,
O'ynadik xola-xola.
Mezbon bo'ldi Nargiza,
Mehmon esa men, Lola.
-Oling-oling, qilishib,
Uchchov rosa to'yibmiz.
Mehmonlarga atalgan,
Qand-qursni yeb qo'yibmiz.

BAHOLAR HUKMI

Shokir bugun o'qishdan
Oldi «3» baho.
Ustozining fikricha,
«3»-bu puch baho.
Zudlik bilan qalamni,
Olib qo'lga.
Ish boshladi bir qarab,
O'ngu so'liga.
«3»ning shoxin qayirib,
Yasadi «5»ni.
Qoyil qilib tashladi,
Bir zumda ishni.
To'rtchi sinfdoshidan,
Bir zumda oshdi.
Maqtov eshitmoq uchun,
Uyiga shoshdi.
Shokolad orzusida,
Borar edi u.
To'satdan bir chuqurga,
Tushib ketdi-ku.
Koshona, zo'r qasrda,


Ko'rdi o'zini.
Taxida o'tirarmish «5»
Tikib ko'zini.
Yonida «4»lar vazir,
Qovushtirar qo'l.
«3»lar emish xaloyiq,
Bo'shatishar yo'l.
Ko'zlarin olaytirib,
Qoshin chimirib.
So'z boshladi «5» baho,
Taxtga musht urib:
-Shokirning bu qilmishi,
Nimaga loyiq?
Qanday jazo beraylik,
Unga, xaloyiq?
Vazirlar o'yg'a toldi,
Boshin egib xam.
O'ng qo'l vazir ohista,
So'z oldi shu dam:
-Qanday jazo berishni,
Aytsin «3» o'zi.
Hukmini bajaraylik,
Qonundir so'zi.
Ko'zlarini uqalab,
Chiqib o'rtaga.
So'z boshladi piqillab,

BIZNING NOR

Ukam Norboy,
singlim Zuhra,
borar edik uchchovlon.
-Komandirlar oldda yurar,-
deva borar Nor shodon.
Ro'paradan, qora mushuk,
birdan o'tib qoldi-yu.
«Zo'r komandir»
darhol o'zin orqamizga oldi-yu.
-Komandir mard bo'lishi kerak.
Qo'rqmas, jasur, dovyurak.
Jangchilarni
qo'niqlab u,
orqada yurishi kerak.
Boyo'g'liga qiyos qilib,
ovoz berdim jo'rttaga.
«Mard komandir» chaqqongina,
o'tib oldi o'rtaga.
-Tajribali komandirlar,
yurar doim orada.

UYDA QOLIBDI

Papkasini qappaytirgancha,
Maktab tomon yo'l olar G'ani.
Ustozi der:-Darsni boshlaymiz,
Kitob-daftar olinglar qani.
Papkasini kavlaydi G'ani,
Non bor, qand bor, magiz olibdi.
Unutmabdi pistani, ammo,
Kitob-daftar uyda qolibdi.



NOIMNING BAHONASI

-Oyi, oyijon menga,
Yaqin yoting,-der Noim.
Men-chi, juda ajoyib,
Tushlar ko'raman doim.
Tushlaringa sizni ham,
Sherik qilaman shunda.
Mazza qilib kulasisz,
Qiziq tush ko'rib tunda.

UYDAN QOLIB QO'YGANCHOQ

Roppa-rosa bir soat,
Yotdim singlim yonida.
Sekin chiqdim tashqari,
Uxlab qolgan onida.
Zumda eshik ohista
Ochilib qoldi bitiq.
-Sekin!-imladi singlim,-
Uxlab qoldi qo'g'irchoq.



ISINIB OLISHSIN DEB

-Gullatim qurib qoldi,-
Der Lola yoshli ko'zi.
Onasi hayron so'rar,
-Suv quyganmiding o'zi?
-Gullatim-chi, oyijon,
Turishardi sovuq yeb.
Quygan edim issiq suv,
Isinib olishsin deb.



U HAM SIZLASIN MENI...

Ona chorlab qizini,
Der:-Senda bordir so'zim.
Opangni sizlamasang,
Uyat bo'ladi, qizim.
-Oyijon «siz»dan ko'ra,
Osondir aytmoq «sen»i.
Gar sizlasam opamni,
U ham sizlasin meni.



BUNYODKORLIK G'OYASI

Biz yangi davr, yangi asrni boshdan kechirayapmiz. Mustaqilligimizni mustahkamlash XXI asr yoshlarining yelkasiga tushishi barkamol avlod bilan bilimdon va uddaburon bo'lishlikni taqozo etadi. Jahon hamjamiyatida o'z o'rnini va mavqeiga ega bo'lish uchun boshlangan say' - harakatlarda ularning o'rnini sharaflari va muqaddasdir. Ular ushbu jarayonda jamiki intilishlari va izlanishlarini ana shu ezgu maqsad sari yo'naltirmoqliklari lozim.

Ijtimoiy mustaqillik jarayoni boshlandi. Biz bu jarayonni ko'rib, eshitib, o'qib, haqli ravishda quvonmoqdamiz. Axir quvonmay bo'ladimi - jonajon Vatanimiz bayrog'i ulug'vor madhiyamiz ostida. Yer yuzi mamlakatlari anjumanlarida, bellashuvlarida ko'kka bo'ylayotgan bo'lsa! Musobaqalar, bellashuvlarda mustaqil ishtirok etayapmiz, jahonga ko'z - ko'z qilgulik g'oliblarimiz bor! Bular - bunyodkorlik g'oyasining ustuvorligidan, porloq kelajagimizdan dalolat emasmi axir?!

Jamiat taraqqiyotida bunyodkorlik g'oyalari ko'p bo'lgan sohibqiron bobokalonimiz Amir Temurning kuchli davlat tashkil etish fikri ham ana shunday bunyodkorlik g'oyalardan biri edi. Biz esa har jihatdan - har sohada mustaqil bo'lib, buyuk davlat qurish ehtiyoji va ishtiyogi bilan yashamoqdamiz, o'qimoqdamiz. O'zbekistonimiz bilan yonma-yon barkamollik sari bunyodkorlik shukhi bilan dadil odimlamoqdamiz.

SIZDEK BO'LSAK, ISLOM BOBO!

Islom Karimov: «Yoshlar - mening bolalarim», deganlarida ko'ksimiz faxrli g'ururga to'ldi: «Biz Sizga o'xshashni juda-juda istaymiz!» - dedik.

Men kirish so'zi qilib, lavhanoma tarzida yurtboshimiz so'zlarini bejiz keltirib o'tganim yo'q. O'sha - birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 yil 14 aprelida o'tkazilgan o'n to'rtinchi sessiyasidan keyingi uch yil ichida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida mamlakatimiz tumanlari va shaharlarida ko'plab kasb-hunar kolleji va akademik litsey qad rostlab, o'z faoliyatini boshladi. Mustaqilligimizning 10 yilligi nishonlanadigan kunga qadar yana bir nechta kasb-hunar kolleji va akademik litsey qurilib, yoshlarni o'z bag'riga chorlaydi.

FARG'ONADA SHUNDAY LITSEY BOR...

Men ushbu viloyatning Qo'qon shahri, Dang'ara, Beshariq va Bag'dod tumanlarida ish boshlagan kollej va litseylarda bo'lib, ichki entikish va qoniqlik bilan ularning faoliyati bilan tanishdim. Ularning har biri haqida alohida-alohida maqola, sahifalar bersa arziydi. Lekin men Farg'ona Davlat Universiteti qoshidagi Akademik litseyga alohida to'xtalmoqchiman. Akademik litseyda 4 ta asosiy yo'nalish - aniq fanlar, tabiiy fanlar, xorijiy filologiya va ijtimoiy gumanitar fanlar bo'yicha yoshlarga bilim berilmoqda. Uning rahbari - zukko olim, fizika fanlari doktori Muhammadjon Abduvohidovich Karimov 1998 yildan boshlab ushbu Ziyo maskanida baqamti - jonkuyarlik bilan ish yuritib kelmoqda. U kishi bilan yelkama-yelka malakali ustozlar - filologiya fanlari doktori Akbarjon Madg'oziyev, fizika-matematika fanlari doktorlari - Rustamjon Rasulov, Nosirjon Yo'ldoshev, falsafa fanlari doktori Mahmudjon Abdullayev va boshqalar yoshlarning puxta - mukammal bilim olishlari uchun, barkamollik cho'qqilarini egallashlari uchun zamonaviy o'quv xonalari saboq berib kelmoqdalar. Ularning ko'pchiligi u yoki bu universitetlarning professorlaridir.

YAYRAB-YASHNAB O'QIYDIGAN DAVR...

Mustaqillikka erishganimizdan keyingi yillarda yoshlar uchun «yallama-yorim»ni aytib, yayrab-yashnab o'qiydigan shart-sharoitlar, imtiyozlar va imkoniyatlar o'n yil oldin bormidi?! O'zbekistonimiz uchun - o'z jonajonimiz uchun farzandlik burchini oqlaydigan davr endi keldi! Yoshlarga xizmat qilayin deb - qolishdan bel bog'lab kelgan XXI asr ham O'zbekiston asri bo'lishi shak-shubhasiz. Davringiz keldi, bo'shashmang, ey yoshlar!

Akademik litsey talabalari bilan birgalikda bo'lib o'tgan aytishuv - «yallama-yorim»da men bilan xorijiy filologiya yo'nalishi 2-bosqich talabalari - Dinora Zuhridinova, Nargiza Fayozovalar, toliblari - Rustam O'rinboyev va Talabjon Xolbekov, tarix-geografiya yo'nalishi 3-bosqich tolibi Elyor Qobilovlar hangomalashdilar. Gurungimiz Akademik litsey yoshlarining dunyoqarashi, yo'nalishlari haqida bo'ldi.

Avvalambor men ulardan lotin yozuvidagi o'zbek alifbosiga o'tganimiz sababini so'radim.


Elyor QOBILOV: -Sovet mafkurasi kiril yozuvida bo'lgan. Endi biz o'z mafkuramizga egamiz. Yozuvimiz ham hqacha bo'lishi kerak-da!

Talabjon XOLBEKOV: -Aksariyat - taraqqiyot yo'lida - yuksak rivojlangan mamlakatlarda lotin yozuvi qo'llanadi. Shu tufayli ham biz shu yozuvga o'tdik.

Nargiza FAYOZOVA: -Hamma yozuvlar ma'lum ma'noda taraqqiyotga xizmat qiladi. Lekin lotin yozuvi dunyo tili hisoblangan ingliz tilining asosi hisoblanadi. Shuning uchun bo'lsa kerak-da.

Dinora ZUHRIDDINOVA: -Lotin yozuviga o'tishimizning davlat siyosati darajasidagi jarayon deb tushunaman. Bu yozuv orqali dunyoga chiqishimiz osonlashadi.

- Ha, balli, - dedim «sovuq»dan «issiq» qa yaqinlashganimizdan xursand bo'lib. - Internet tizimi ham lotin yozuvida ekanligini hisobga olsak, Nargizaning javobi bir qadar haqiqatga yaqinroq. Biz jahonga ana shu yozuv orqali chiqamiz, shu yozuv orqali xorij mamlakatlari tillarini o'rganishimiz ham oson kechadi, ular ham bizning tilimizni o'rganishda qiyinchilik sezmaydilar. Jamiki dunyoviy axborotlarni shu yozuv orqali qabul qilamiz va uzatamiz. Jahon hamjamiyatiga qo'shilishimizda bu yozuvning xizmati beqiyos.



FIDOYILIK NAMUNASI

Gurungda men, shuningdek, ulardan nima uchun o'zlari o'qiyotgan ixtisoslikni tanlaganlari haqida so'radim.

Aziz OTAXONOV: -Men o'zim tug'ilib, o'sgan Quvasoyda xorijiy filologiyani bitirib, chet elda jurnalist bo'lmoqchiman. Ochig'ini aytishim kerak: qishloq bolalariga bilim berish saviyasi talab darajasida emas. Darslar nomigagina o'tiladi. Aksariyat paytlarda o'quvchilar dala ishlari bilan band bo'lishadi. O'zbekiston buyuk bo'lishi uchun esa bilimdon bolalar kerak! Ana shuni chuqur his qilgan hamyurtim Nabijon aka (famiyalari tilimning uchida turibdi, u kishini viloyatimizda hamma taniydi!) ana shu niyatda yosh avlod uchun 420 o'rinli gimnaziya qurdirib berganlar, «Pravod» kompyuterlari bilan ta'minlaganlar. Hozir esa ukalarimiz «Pentium» kompyuterlarida saboq olmoqdalar. Yoki Xudoyberdi Qosimovni olaylik. U kishi 1993 yilgacha davlatdan qarzdor bo'lib qolgan sement zavodini oyoqqa turg'azdilar. 1999 yili zavod mahsuloti oltin yulduz medaliga sazovor bo'ldi. Bunga u kishi malakali kadrlarni joy-joyiga qo'yib, jonbozlik orqali erishganlar. Hozirda Nabijon aka Quvasoy shahrining hokimi. Men ana shunday fidoyi insonlarga o'xshasam deymen. Mamlakatimizning har bir fuqarosi davlatimga foyda keltiraman deb yonib yashamog'i lozim.

Men jurnalist bo'laman, dedim. Bizda hali tedevideniyemiz dunyo yangiliklarini «SNN» orqali olib bermoqda. Qaniydi, o'zim biror yangilikni o'zim mamlakatimiz siyosati nuqtai nazaridan yoritsam!

Nargiza FAYOZOVA: Biz To'marislarda yashaymiz. O'tmishda ayollar ham erkaklar bilan yelkama-yelka turib, ona yurtlarini himoya qilishgan.

Zebo G'anyeva 28 ta fashistni til tishlatgan. Men esa huquq himoyasi bo'yicha o'qib, bitta orom kursini egallasam deymen.

- Oromkursi orzusimi yoki Vatanga xizmat qilish tuyg'usimi bu? - deymen sinchkovlik bilan.

- Har bir inson egallab turgan lavozimi orqali Vatan manfaati, xalq manfaati uchun jon kuydurmog'i zarur, - deydi Nargiza kulimsirab.

Istiqbol va Istiqlo!

... 2005 yilga qadar biz respublikamizda 1611 ta kasb-hunar kolleji va 181 ta akademik litseydan iborat bo'lgan o'rta-maxsus kasb-hunar o'quv yurtlarining zamonaviy tarmoqlarini bunyod etishimiz kerak. Bu to'qqizinchi sinflarni bitiruvchilarni o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi maktablariga to'la qamrab olishni ta'minlaydi.

Islom KARIMOV

- JAHONGA BO'YLAYOTGAN XALQMIZ

- deydi Aziz Otaxonov. - O'zbekchilik degan andisha ko'p yillardan beri tilimizni, erkimizni siqib keldi. Ma'naviy kengliklari ochilgan mamlakatda mustaqillik nashidasidan bahramand bo'layotgan tengqurimga qarata shunday demoqchiman: Dadil qadam tashlang, do'stlarim! Chet tillarini puxta egallang. Dunyo bilan tillashadigan, oltin davrimiz keldi! Men ingliz tilini egallab, bolalarga puxta bilim berish uchun o'qimoqdaman.

- Shunday sharoitlar yaratib berilayotgan ekan, yoshlar bo'sh qolmasliklari kerak, - dedi Elyor. Prezidentimiz «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatini jonlantirish haqida kuyinib, juda to'g'ri qildilar. Yoshlar ichida giyohvandlik, narkotikaga berilish holatining borligi hammamizning dil borlig'imiz.

Men ana shu masala bo'yicha faoliyat ko'rsatib, shu illatga qarshi kurashmoqchiman.

- Yoshlar ko'chada qolib ketmasliklari uchun ham kollej va litseylar tashkil etilayapti. O'quv yurtlarni bitirgan yoshlarga kun kafolati meni o'ylantiradi. Shuncha bola o'qigandan keyin ularni ish joyi bilan ta'minlash ham bor-ku! Shu masala ertaga keng ko'laml muammoga aylanib ketmasmikan? Shuning oldi olinsa yaxshi bo'lar edi.

- Vodiya bizning viloyatimiz taraqqiyot bosqichi bo'yicha ancha quyida, - dedi Elyor. - Qo'shni viloyatlarda qo'shma korxonalar gullab-yashnamoqda. Bizda esa ancha sust. Axir malakali mutaxassis - milliy kadrlarga bo'lgan ehtiyoj haqida bugun o'ylanmasa qachon o'ylanadi? Ish o'rinlariga yangi korxonalarni shakllantirish orqali erishiladi-ku.

- Bizning bilimimiz zo'r bo'lishi mumkin, - qo'shildi Aziz, - lekin ma'naviyatimiz ham shunga yarasha bo'lishi kerak-da. Xalq mudiri, Vatan taqdiri topshirilgan uddaburon rahbarlarimiz bu haqda ma'naviy nuqtai nazardan o'ylab ko'rishsa chakki bo'lmas edi.

HAYOT - LIFE - JIZN

- O'zi solih bo'lmagan inson dunyoni isloh qila olmas, - dedim suhbatdoshlarimga. - Shu ma'noda yurtboshimiz ham «Kamolot»ga urg'u berib o'tdilar. Sizlarda bu borada qanday yangiliklar bor?

- Meni bir narsa ajablantiradi, - dedi Aziz Otaxonov. U ham bo'lsa - loqaydlik! Nimaga endi har bir sohada Prezidentimiz «turtib qo'ygandan keyin o'zgarishi kerak? Axir yoshlar tarbiyasi, kamoloti haqida hamma birdek qayg'urishi kerak emasmi? Axir o'n yil to'layapti Mustaqilligimizga!

- Yurtboshimiz jamiyatimiz rivojida muhim o'rin tutgan yoshlar harakatiga e'tiborni qaratib ko'pchilikning ko'zini ochib qo'ydilar, - dedi Nargiza. - Yoshlar harakati ijtimoiy yo'nalishga qaratilmas ekan, bekorchilikdan zerikkan tengqurlarimiz har xil xato oqimlarga ilashib ketaveradilar. Biz yoshlarni iqtidori va ehtiyojini nazarda tutib «hayot - life - jizn» gazetasini chiqarishni mo'ljallab turibmiz. Bu keng ko'laml - 8 sahifali gezeta bo'ladi. Yoshlar harakati, dunyoqarashi ijodiy yo'nalishlari, dunyo taraqqiyoti bosqichlari haqidagi gazeta bo'ladi. Hozir shu gazetaning maketini tayyorlayapmiz.

Akademik litsey yoshlarining orzu-istaklari, intilishlari ham akademik ekan. Ular bilan qurgan suhbatimiz juda ham maroqli bo'ldi. Men ularga kelgusi ishlariga muvaffaqiyatlar tilab, bo'lajak gazetalariga «Kamolot» nomini berishlari zarurligini ta'kidlab, xayrlashdim.

Sobir JABBOR.

- Qayoqqa, qayoqqa deysizmi?
Iye, hali u joy nimaligini bilmay
turib, bor'ingiz kelib qoldimi?

Bemalol! U holda avvalo gazeta do'koniga borasiz,
menga «Ilmus sayyorasiga g'aroyib safar» degan
kitobdan bittagina bering deysiz... Ana undan keyin
boshlanadi hammasi!

Lochin ko'z, ya'ni Omon o'qishni xushlamaydi.
Trapetsiyani yeb bo'lmasa, uni o'qib-o'rganib nima
zaril, deb hisoblaydi. Yangi sinfdoshi Gersni boplab
po'stagini qoqadi a'lochi bo'lgani uchun! Uning o'zga
sayyoralik ekanini qayoqdan bilsin? Aksiga olib,
Gersni militsiyaga olib ketishadi. Terakzordagi
fazoviy kema esa



uchishga shay. Omon
Shodmon bilan o'z
tinchlarini ko'zlab, o'zga
sayyora uchib ketishadi.
Lekin... Yomg'irdan qochib, naq
qorga tutilishadi, bechoralar.

Bu yerdagi mavjudotlar - g'alati
shaklchalar misol-masala ovqat
buyurtirishadi. Ularning do'konida
non, konfetlar o'rniga misol-masala
beriladi. Uni ishlab stol o'rtasiga
tashlasangiz, yuqoriga g'irillab, pari
chiqib turgan ovqat ko'tariladi.

Bizning shovvozlar esa misolni yecholmay, och
qolib xushdan ketishadi... Ustiga-ustak, ikkovining tashqi
ko'rinishlari qo'shni fizika mamlakatini bosib olgan yovuz
malikaning odamlariga quyib qo'yganday o'xshaydi. Shu bois
binomdagi ba'zi g'alamislar Omon bilan Shodmonni ikkichi
o'quvchilar surgun qilinadigan joy - maket eraga daf qilishadi...

Xullas, shunaqa gaplar. Ilmusning o'ziga yarasha muammolari
bor ekan-da!

Ochig'i, matematika kitobini qo'lga olsangiz, yuragingiz siqiladi.
Ammo kitobdagi shaklchalar, raqamlar jonlanib, o'ziga xos bir
olamga aylansa-chi!? U biram qiziqarliki...

Ushbu satrlar yosh, iste'dodli adiba Mavluda Ibrohimovaning

BIZNING TO'GARAK



yaqinda bosmadan chiqqan
«Ilmus sayyorasiga g'aroyib
safar» nomli sarguzasht-
fantastik qissasidan keltirilgan. Bu kitobni o'qigan
bolalarning matematika, fizika, geometriya kabi
fanlarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlari yanada
oshishi shubhasiz...


«Yosh qalamkashlar» to'garagimiz a'zolari orasida
fantastikaga ishtiyoqmandlari ham talaygina ekan. Shuni
inobatga olgan holda bu galgi mashg'ulotimizga ana shu
janrda sermahsul ijod qilib kelayotgan Mavluda

Ibrohimovani taklif qildik. Gazetamizning
keyingi sonlarida
mazkur qissadan
parchalar berib
borish niyatidamiz.

Mavludaxon bolalarga
dastlab fantastika janri haqida
tushuncha berib, bu janrda qalam
tebratadigan ijodkorlar hamma
joyda ham bo'lavermasligi,
masalan, Turkmaniston,
Tojikiston kabi davlatlarda
fantastika janrining o'zi yo'qligi
haqida faxr bilan gapirib
berdilar. Shuningdek, sevimli
shoirimiz Quddus

Muhammadiyning to'garagiga qatnab yurgan
damlari, birinchi intermediyasining «Tong yulduzi» da
bosilganidagi quvonchu hayajonlarini xotirladilar. Bolalarga,
ayniqsa, fantastika janriga qiziquvchilarga alohida maslahatlar
berdilar. Uchrashuvdan bir olam taassurot olgan yosh
qalamkashlar Mavluda opalaridan dastxat olishga shoshilishdi.

Darvoqe, to'garagimizning faol qatnashchilaridan biri- Toshkent
shahridagi 90-maktabning 8-sinf o'quvchisi Kamoliddin
Tolipovning to'garagimiz nomini «Istiqlol umidlari» deb nomlasak,
degan taklifi hamda chizib kelgan surati hammaga ma'qul bo'ldi.




QIZALOQ

Yuzchalari dumaloq,
Ko'zlari qora munchoq.
Ovunchog'i - qo'g'irchoq,
Jajjigina qizaloq.

Bog'chaga borar ildam,
Qo'g'irchog'in der bolam.
Tillari burro biram,
Jajjigina qizaloq.

Hali kichik bo'lsa ham,
Yumushlarga shay har dam.
Harakatlari ildam,
Jajjigina qizaloq.


Feruza OBIDOVA,
Yangiyo'l tumanidagi
2-o'rta maktabning
8-sinf o'quvchisi.



Tongda ko'z ochar satang,
Usti-boshi juda bashang.
Oshiqdir unga bulbul,
U - tongning singlisi...



Palak ostidan mo'ralar,
Shirasi tilni yorar.
Simirar quyosh nurin
Polizda erkato'y....



Qirmizdir yonoqlari,
Sabzavotlarning zo'ri.
Har taomga zeb berar,
Mazalikkina....

Gulnoz TOJIBOYEVA,
Sirg'ali tumanidagi
252-maktabning 5-sinf
o'quvchisi.

O'N YOSHING MUBORAK!

O'n yoshga to'libsan O'zbekistonim,
Qutlug' bo'lsin istiqlo'l, nurli bo'stonim.
Onam kabi muqaddasu ham mehribonim,
Yakkam, yagonamsan jonu jahonim.

Xumo qushing boshingda bo'lsin parvona,
O'zga yurtlar ichra o'zing durdona.
Bag'ri keng, mehmondo'st, sahiy xalqing bor,
Yurtim, himoyangga shaydir mardona.

Nasiba ASHUROVA,
Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on
tumanidagi Sharof Rashidov nomli
11-o'rta maktabning 8- «A» sinf o'quvchisi.

TOPISHMOQLAR



BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA!

Siz «Tong yulduzi» gazetasi sahifalarida
uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga yozib
yuboring. Chunki atayin bilag'on va
topag'onligingizni sinash maqsadida harflar
tushirib qoldiriladi yoki qo'shib qo'yiladi. Tinish
belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi...
Maqsadimiz: bilimli bo'ling. Chunki osmonni
yulduzlar, yerni esa bilimlilar bezar.

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining
gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT MATBUOT
QO'MITASI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR
IJTIMOIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Komil YUSUPOV,
Mukarrama
MURODOVA,
Sunnatilla QO'ZIYEV,
Ergashvoy SARIQOV.


Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 58.519
nuxxada ofset usulida
bosildi.

Korxona manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.
Buyurtma № F-2692
Gazetani
Muhabbat
MAHSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Muharrama
PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08



Ushbu sahifamizni Yakkasaroy tumanidagi 118-
maktabning 4- «A» sinf o'quvchisi Dilrabo
Do'stqobilovning chizgan rasmlari bilan bezatdik.